
XO'JAARIQ QISHLOG'IDA ELEKTR TA'MINOTI YAXSHILANIB ICHKI KO'CHALAR SHAG'ALLASHTIRILMOQDA.

Ayni kunlarda Toshloq tumanining olis qishloqlarida istiqomat qilayotgan aholiga shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida elektr energiya ta'minotini yaxshilash, ichki yo'llarni asfaltlash hamda shag'allashtirish ishlari jadal olib borilmoqda.

Tumandagi Xo'jaariq MFY hududidagi aholi murojaatlari o'rganib chiqildi. Muammolarni o'z vaqtida hal etish maqsadida Manguberdi ko'chasida bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi. Dastlab, elektr uzatish tarmoqlarini joriy hamda mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Mahallaga 1 dona transformator punkti o'rnatilib, montaj ishlari olib borildi. Natijada 40 dan ortiq xonadonlar elektr energiyasi yaxshilandi. Bundan tashqari ichki yo'llarni sifatini yaxshilash maqsadida tuproqli yo'llarni shag'allash ishlari bajarilmoqda.

2022-12-01 14:57:14